

INSON HUQUQLARI BO'YICHA YEVIROPA SUDINING FAOLIIYATI

Ravshan Baxronov Rashid o'g'li

Kalit so'zlar: *Yevropa sudi, inson huquqlarini ta'minlash, erklik, huquq ustuvorligi, yevropadagi inson huquqlarida yuzaga kelgan muammolar, kovensiya*

Annotatsiya: *Yevropa sudi inson huquqlari bo'yicha hal qiluvchi mustaqil bo'lgan xalqaro suddir. U inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida hech qaysi tashkilotga, davlatga bo'ysinmagan holda ish olib boruvchi tashkilot sanaladi. Sud ushbu sohaga tegishli bo'lgan ishlar va masalalar yuzasidan optimal hal qiluvchi organlardan biri sanaladi.*

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА

Ключевые слова: *Европейский суд, обеспечение исламских прав, достоинство, верховенство закона, проблемы, возникающие в области прав человека в Европе, конвенция.*

Аннотация: *Европейский суд по правам человека является независимым международным судом. Считается организацией, которая работает независимо от какой-либо организации или государства по обеспечению прав и свобод человека. Суд считается одним из оптимальных органов принятия решений по делам и вопросам, связанным с этой сферой.*

ACTIVITIES OF THE EUROPEAN COURT OF HUMAN RIGHTS

Key words: *European Court, ensuring Islamic rights, dignity, rule of law, problems arising in human rights in Europe.*

Abstract: *The European Court of Human Rights is an independent international court. It is considered to be an organization that works independently of any organization or state to ensure human rights and freedoms. The court is considered one of the optimal decision-making bodies regarding cases and issues related to this field, convention.*

Hozirgi paytda inson o'z huquqlari bilishi, uni amalda tadbiiq qila olishi muhim sanaladi, xususan zamonaviy davrda bu barcha uchun muhimdir. Jahondagi hozirgi holatdan kelib chiqib barcha davlatlarda, xususan bizning yurtimizda ham inson huquqlarini ta'minlash uchun bir qator ishlar olib borilmoqda. Inson huquqlarini ta'minlash va jamiyatni barqarorlashtirish integratsiya, globalizatsiya va boshqa faktorlarning rivoji hisobiga erishish mumkin. Shuningdek, ilmiy-texnik o'sishlar, xalqaro jarayonlar, xalqaro tashkilotlar bularning barchasi inson huquqlarini rivojlanib, borishi va uni barqarorlashtirishga hizmat qilayotgan omillardan sanaladi.

Dunyodagi globalizatsiyadan kelib chiqib inson huquqlari dunyoga adaptatsiya jarayoni haliyam sodir bo'layotgani, u butunlay ta'minlanmasdan, bosqichma bosqich kirib

borayotgani, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy omillar sababli hu holat adatatsiyaga kirib borayotganini ta'kidlash mumkin.

Bu borada dunyoda maxsus tashkilotlar mavjud, ularning barchasining asosiy niyati albatta inson huquqlarini ta'minlashdir. Xususan, inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi ham bundan mustasno emas. U yevropa konvensiyasini ratifikatsiya qiluvchi, inson huquqlarini, unga bog'liq barcha masalalarni, xalqlar, davlataro inson huquqi buzilgan holatlar hal qilish va uning monitoringi bilan shug'ullanuvchi tashkilotdir.

Bu omillar sabab Yevropa sudiga sudya bo'lib kirish uchun ham ma'lum bir talablar o'rnatilgan, ya'ni yuqori malakasi, uzoq yillik tajriba, xalqaro ishlar bilan tanishligi asosni kasb etadi. Ular o'z davlatining fuqarosi, yoki boshqa sabablarga e'tibor qilmasligi zarur, ya'ni o'zini jahon fuqarosi deb bilishi, nepotizmdan uzoq bo'lishi talablari bor.

Shuningdek, ular hech qayerda sudyalikdan tashqari muqum ishlash maskani bo'lmasligi zarur, ya'ni Yevropa sudi sudyasi lavozimi birlamchi ish maskani bo'lishi talab etiladi.

Ularning asosiy ishlari individual shikoyatlarni ko'rib chiqishdir. Inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha konvensiyaning 34-moddasida "Sudga istagan jismoniy shaxs, nodavlat tashkilotlari, istalgan guruh, yoki boshqa toifadagi inson huquqlari buzilishi kuztilganlar murojaat qilish huquqiga ega", - ekanligi belgilab qo'yilgan. [1]

Yevropa sudi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadigan bo'lsak, u hozirda Yevropadagi yuqori instansiya sanalib, markazi Fransiyaning Strasburg shahridir, 46 ta davlat tarkibida mavjud. 1959-yilda ilk bor vaqtinchalik rolda tashkil etilgan bo'lsa, 1998-yili doimiyga aylandi. Umumiy 47 ta sudya faoliyat yuritadi va hozirda rahbar Robert Spano. Har bir sudya 9 yil davomida ishlash huquqiga ega, ishlarni ingliz va fransuz tilida olib boradi. [2]

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyaga ham to'xtalib o'tish o'rinli sanaladi. U 1950-yilda tashkil etilgan va 1953-yilda faoliyatini boshlagan. U inson huquqlarini barcha jabhalarini qamrab olib, davlatlarning bu konvensiyani qabul qilishga chorlaydi. Uning boshqa shu kabi tashkilotlardan farqi haqiqiy ta'sir kuchi ega ekanligidadir deyiladi. U 1948-yili Inson huquqlari unumajahon deklaratsiyasi qabul qilinganidang so'ng qabul qilinadi.

Konvensiya bo'limlarga ajratilgan:

Ya'ni inson huquqlari va erkinliklari, Yevropa sudi, boshqa turdagi huquqlar. Uning birinchi moddasidayoq shu kabi matnni uchratish mumkin "Yuqori kuchga ega shartnoma egalarning barcha toifa vakillari yurisdiksiya ostida, nazoratidadir, inson huquqlari va erkinliklari konvensiyada belgilangandir".[7]

Undan tashqari sudga shikoyat arizasini yuborish uchun ma'lum bir talablar mavjud.

- Shikoyatning predmeti inson huquqlarini himoya qilish konvensiyasida ta'minlanishi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim, bu degani inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha cheklangan holda amalga oshiriladi degani emas, bunda masalan mehnat, gigienik, ijtimoiy ta'minlash borasidagi masalalar konvensiyada belgilab o'tilmagan. Bu kabi huquqlar boshqa bir konvensiyada belgilab o'tilgan.

- Shuningdek, sud barcha jismoniy shaxslarning, guruhlar, nodavlat tashkilotlarining davlat tomonidan yetkazilgan yoki biron tashkilot tomonidan yetkazilgan huquqbuzarligi

uchun ishni ko'rib chiqishi belgilab o'tilgan. Arizachi biron davlat fuqarosi yoki yevroitifoq a'zosi tomonidan berilishi majburiyat mavjud emas. [5]

Unda tashqari sudga ariza berishning quyidagicha talablari bor:

1. Huquqbuzarlik sodir bo'lganidan so'ng 4 oydan ko'p bo'lmagan vaqtda sudga murojaat qilish zarur.

2. Inson huquqlari bo'yicha konvensiyaning qabul qilingan paytdan so'ng berilgan arizalar qabul qilinadi.

3. Shaxs ariza berishi uchun uning o'z davlatida huddi shu holatlar himoya qilinmaganligiga asos bo'lishi zarur.

4. Ariza Yevropa sudi ko'rib chiqadigan ishlar doirasida bo'lishi zarur, undan tashqariga chiqilsa sud ishni ko'rmasdan qoldirish huquqiga ega.

5. Shikoyat Yevropa sudi namunasi bo'yicha taqdim etilishi zarur.

Undan tashqari inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi nafaqat Yevropada balki, Osiyoda ham bir qator ishlab olib bormoqda. Yevropa Ittifoqi va Yevropa Kengashi inson huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash va davlat muassasalarining samarali faoliyatini rivojlantirish sohasidagi islohotlar jarayonini qo'llab-quvvatlashda Markaziy Osiyodagi hukumatlarning hal qiluvchi hamkorlari bo'lib qolmoqda. [6]

2020-2023 yillarga mo'ljallangan Markaziy Osiyoda qonun ustuvorligi dasturi Yevropa Ittifoqi va Yevropa Kengashining Markaziy Osiyoning beshta mamlakati (Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston) hukumatlari bilan hamkorlikdagi tashabbusi bo'lib, to'rt yil davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Uning asosiy maqsadi Yevropa va boshqa xalqaro standartlarga muvofiq inson huquqlari, qonun ustuvorligi va demokratiyani mustahkamlash orqali fuqarolar hayotini yaxshilashdir. Umumiy byudjet qiymati 8,889,000 yevroni tashkil etadi (90% Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi, 10% Yevropa Kengashi tomonidan moliyalashtiriladi), Dastur uchta yo'nalish bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshiradi: Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasida umumiy huquqiy makon yaratilishiga ko'maklashish va inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish sohasida Dastur Yevropa Kengashining konvensiyalari to'g'risida xabardorlikni oshirish va treninglar o'tkazish maqsadida davlat institutlari va fuqarolik jamiyatlari bilan hamkorlikni kuchaytiradi, hamda huquqiy masalalar bo'yicha mutaxassislar uchun Yevropa inson huquqlari standartlari bo'yicha ularning bilimlarini kengaytirishga qaratilgan treninglar o'tkazilishi belgilab olindi. [3]

Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi ochiqlik va harakatlarga ko'maklashish sohasida Dastur milliy hokimiyat organlariga korrupsiya, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning oldini olishda, shuningdek biznesning yaxlitligini oshirish va tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishda texnik yordam beradi. Qirg'iziston Respublikasida va O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi huquqiy standartlar bo'yicha veb-seminarlar o'tkazildi va ekspertlarning korrupsiyaning oldini olish bo'yicha milliy qonunchilik bazalarini tahlillari olib borilmoqda. [4]

Maqola bo'yicha inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy va boshqa hujjatlarning mazmun-mohiyatini tahlil etgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Inson huquqlari sohasidagi nazorat mexanizmining elementi sifatida xalqaro sud-huquq institutining tashkil etilishi xalqaro huquq uchun ijobiy hodisa bo'lgan bo'lsa, Konventsiyaning nazorat mexanizmi mavjud bo'lishi uni yanada mustahkamlashga hizmat qiladi. Yevropa sudining asosiy elementi sifatida boshqaruv mexanizmining evolyutsion, bosqichma-bosqich rivojlanishini olish mumkin.

Yevropa sudining rivojlanishining evolyutsiyasi uning faoliyati samaradorligini, Konventsiya ishtirokchi-davlatlari tomonidan uning majburiy yurisdiksiyasini so'zsiz qabul qilishini va qarorlarining deyarli to'liq bajarilishini ta'minlab borilishi, uning qamrovi qanchalik oshib borayotganligidan dalolatdir. Yevropa sudining tarixi inson huquqlari xalqaro huquqining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini to'liq tavsiflaydi va uni tahlil qilish orqali ushbu sohadagi xalqaro huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirishning eng maqbul yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

2. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining huquqiy tabiati xalqaro huquqiy xususiyatga ega ekanligidir. Sudning millatlararoligi yoki uning faoliyatida millatlararolik belgilarining mavjudligi haqidagi bayonotlar xalqaro huquq doktrinasiga ham, xalqaro munosabatlar amaliyotiga ham to'g'ri kelishi uning ijobiy qabul qilinishiga asosdir. Sudning aynan shunday nom olganligi uning aynan bir davlat tassarfida ekanligida holiligiga dalolatdir. Sudning xalqaro sud sifatidagi o'ziga xosligi shundaki, u davlatlararo nizolarni ko'rib chiqish va nazorat funksiyalarini birlashtirgan birinchi xalqaro suddir.

3. Inson huquqlari xalqaro huquqining boshqa sohalari bilan solishtirganda asosiy xususiyatlaridan biri bu yuqori instansiya ekanligi bo'lib, pirovardida xalqaro huquqda ushbu sohaning jadal rivojlanishini ta'minlab beruvchi tashkilotdir.

4. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqni institutsionalizatsiya qilish jarayoni ham muhim sanaladi. Institutsionalizatsiya avvalambor, xalqaro institutning inson huquqlari sohasida xalqaro huquq sohasida bajarishi kerak bo'lgan vazifalariga bog'liq: agar asosiy funktsiya davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish bo'lsa, unda institutlar ko'pincha xalqaro tashkilotlarning organlari shaklida yaratilgan, lekin agar xalqaro institutning asosiy vazifasi xalqaro majburiyatlarga rioya etilishini nazorat qilish bo'lsa, davlatlar odatda mustaqil va mustaqil nazorat organi sifatida harakatlanadi. Yevropa sudi 1950-yildagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konventsiyasiga muvofiq, Yevropa Kengashi tarkibida faoliyat yurituvchi mustaqil xalqaro sud bo'lib, xalqaro tashkilot organi hisoblanmaydi va hech qaysi davlatning nazoratida bo'lmagan mustaqil tashkilot sanaladi.

5. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining faoliyati insonning asosiy huquqlarini qaror toptirishga, ularning mazmunini, jumladan yashash huquqi va qiynoqlarni taqiqlash kabi asosiy huquqlarni majburiy normalar sifatida rivojlantirish va kengaytirishga qaratilgandir. Yevropa sudi barcha davlatlar va xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan xalqaro huquqni o'zida jam etgan tashkilotdir. Inson huquqlarini himoya qiluvchi Konvensiya dunyoning turli davlatlarining qonunchiligida mustahkamlangan.

6. Yevropa sudining qarorlari va huquqiy pozitsiyalarining vakolati, normalari boshqa xalqaro sud institutlariga inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning mazmunini belgilashda

o'z amaliyotidan foydalanish imkoniyatni yaratib bergandir, xususan Inson huquqlari bo'yicha Amerika sudi, Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika sudi kabi xalqaro sudlarni tashkil etish va rivojlantirishda Yevropa sudi ijobiy tajribasi katta rol o'ynagan deyish mumkin.

7. Yevropa sudining faoliyati ham davlatlararo, ham milliy darajada inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning samaradorligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biridir. Bundan tashqari, samaradorlikka nafaqat Konventsiyaga a'zo davlatlar tomonidan balki boshqa davlatlarga ham inson huquqlarini belgilab olishda muhim manba sifatida qo'llanilib kelinmoqda. [8][9][10]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Европейский_суд_по_правам_человека
2. The court in brief. European Court of Human Rights. Дата обращения: 11 февраля 2013
3. https://www.eeas.europa.eu/eeas/yevropa-ittifoqi-va-yevropa-kengashi-markaziy-osi-yoda-inson-huquqlari-demokratiya-va-qonun_uz
4. <https://pjp-eu.coe.int/ru/web/central-asia/-/european-union-and-council-of-europe-reiterate-their-continued-support-to-reforms-to-ensure-human-rights-democracy-and-the-rule-of-law-in-central-asia>
5. Срок на обращение в ЕСПЧ пока остается 6-месячным. Дата обращения: 18 декабря 2018
6. Рябцева Е. В. Злоупотребление правом на подачу жалобы в Европейский суд по правам человека // Евразийская адвокатура. — 2013.
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Конвенция_о_защите_прав_человека_и_основных_свобод#Статьи
8. <http://hrlibrary.umn.edu/russian/hrtsbook/Reurostandards-Rchapter1.2.html>
9. <http://www.echr.ru/convention/index.htm>
10. <https://www.coe.int/en/web/tirana/european-court-of-human-rights>